

2/2026,  
mart-  
aprel  
(№ 00082)



## **TURIZM TIZIMLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TRANSFORMATSIYALASH**

**Ro'ziev Bobir Akramovich**

*Qarshi davlat universiteti, katta o'qituvchisi PhD.*

**Email:** [ruzievb053@gmail.com](mailto:ruzievb053@gmail.com)

**ORCID:** 0009-0001-1486-9749

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol14\\_iss2/811](https://doi.org/10.55439/EIT/vol14_iss2/811)

### **Annotatsiya**

Mazkur ilmiy maqolada turizm tizimlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini transformatsiyalash masalalari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Tadqiqotda hududiy iqtisodiyotda turizmning ko'p tarmoqli integratsiyasi, resurslardan samarali foydalanish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Shuningdek, turizm rivojlanishini baholash uchun integratsiyalashgan indekslar tizimi, ko'p sektorli hamkorlik modeli va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining takomillashtirilgan shakllari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari hududiy turizm tizimlarining raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** turizm tizimi, barqaror rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, hududiy iqtisodiyot, innovatsion yondashuv, davlat-xususiy sheriklik, ko'p sektorli hamkorlik, turizm indeksi, raqobatbardoshlik

### **Аннотация**

В данной научной статье комплексно исследуются вопросы трансформации организационно-экономических механизмов устойчивого развития туристических систем. В исследовании разработаны теоретико-методологические основы интеграции туризма в региональную экономику, повышения эффективности использования ресурсов, инвестиционной привлекательности и внедрения инновационных управленческих подходов. Предложены усовершенствованные модели оценки развития туризма, включая интегрированные индексы, механизм многостороннего сотрудничества и формы государственно-частного партнерства. Полученные результаты направлены на повышение конкурентоспособности региональных туристических систем, обеспечение устойчивого экономического роста и сохранение экологического баланса.

**Ключевые слова:** туристическая система, устойчивое развитие, организационно-экономический механизм, региональная экономика, инновационные подходы, государственно-частное партнерство, межсекторное сотрудничество, туристический индекс, конкурентоспособность

### **Abstract**

This scientific article comprehensively examines the transformation of organizational and economic mechanisms for the sustainable development of tourism systems. The study develops theoretical

and methodological foundations for integrating tourism into regional economies, improving resource efficiency, enhancing investment attractiveness, and implementing innovative management approaches. Additionally, advanced models are proposed, including integrated tourism development indices, multi-sectoral cooperation frameworks, and public-private partnership mechanisms. The findings contribute to strengthening the competitiveness of regional tourism systems, ensuring sustainable economic growth, and maintaining ecological balance.

**Keywords:** tourism system, sustainable development, organizational and economic mechanism, regional economy, innovation, public-private partnership, multi-sectoral cooperation, tourism index, competitiveness.

## **Kirish**

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari va xizmatlar sektorining kengayishi sharoitida turizm sohasi iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Turizmning yuqori qo'shilgan qiymat yaratish xususiyati, bandlikni oshirishdagi roli hamda hududiy rivojlanishga multiplikativ ta'siri uni strategik tarmoqlar qatoriga kiritadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda turizmning barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan, ekologik muvozanatni ta'minlovchi va innovatsion yondashuvlarga asoslangan shakllari keng rivojlanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda turizm tizimi murakkab ochiq iqtisodiy tizim sifatida qaralib, u ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, transport, ekologiya va ijtimoiy infratuzilma elementlarining o'zaro integratsiyasiga asoslanadi [1]. Shu bois, turizmni rivojlantirish faqat xizmatlar hajmini oshirish bilan cheklanmay, balki hududiy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini ta'minlashga xizmat qiluvchi tizimli yondashuvni talab etadi. Bu esa turizmni boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ko'ra, turizmni barqaror rivojlantirish iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy inklyuzivlik uyg'unligiga asoslanadi [2]. Ushbu yondashuv doirasida turizmning hududiy iqtisodiyotga ta'siri to'g'ridan-to'g'ri daromadlar, multiplikativ effekt, bandlik va ekologik xarajatlar orqali baholanadi [3]. Shu bilan birga, “experience economy” (tajriba iqtisodiyoti) konsepsiyasi turizmga yangi qiymat yaratish omili sifatida shakllanib, xizmatlar zanjirini diversifikatsiya qilish va innovatsion mahsulotlarni joriy etishga xizmat qilmoqda [4].

Bugungi kunda turizm tizimlarining samarali rivojlanishi davlat, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyat o'rtasidagi ko'p sektorli hamkorlikka bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmlar investitsiya jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, “O'zbekiston – 2030” strategiyasida turistlar oqimini oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va yangi turizm yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan [5]. Bu esa turizm tizimlarini ilmiy asosda boshqarish, hududiy resurslardan samarali foydalanish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizmni rivojlantirishga oid ishlarda hududiy darajada kompleks baholash, integratsiyalashgan indekslar tizimi, ko'p sektorli hamkorlik mexanizmlari va barqaror rivojlanish indikatorlari

yetarli darajada ishlab chiqilmagan [1]. Ayniqsa, turizm tizimlarini baholashda innovatsion indekslar, davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari va hududiy rivojlanish modellari chuqur ilmiy asoslashni talab etadi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Safari turizm nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlar turli yo'nalishlarda shakllangan bo'lib, ular asosan ekologik turizm, sarguzasht turizmi va hududiy rivojlanish konsepsiyalari doirasida o'rganilgan. Xorijiy olimlar, jumladan Lvamba, Baranowski, Laing va Frost tomonidan safari turizmning mazmun-mohiyati ekologik barqarorlik, yovvoyi tabiatni muhofaza qilish va turistik tajriba yaratish bilan bog'liq holda tahlil qilingan bo'lib, ushbu yo'nalishda “experience economy” konsepsiyasining ahamiyati alohida ta'kidlangan [2]. Ularning tadqiqotlarida safari turizm ko'proq ekologik va sarguzasht turizmi tarkibiy qismi sifatida talqin etilib, uning iqtisodiy tizim sifatidagi roli yetarli darajada yoritilmagan.

MDH mamlakatlari olimlari, xususan Kosolapov, Kireeva va Berezova tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistik xizmatlarni tashkil etish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish masalalari keng o'rganilgan [3]. Ushbu tadqiqotlarda turizmni rivojlantirishning tashkiliy jihatlari, xizmatlar sifati va hududiy turizm resurslaridan foydalanish mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Biroq, safari turizmga xos bo'lgan o'ziga xos iqtisodiy mexanizmlar va baholash tizimlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada shakllanmagan.

O'zbekiston olimlari, jumladan Hayitboyev, Eshtayev va Aliyeva tomonidan turizm sohasining umumiy rivojlanish tendensiyalari, rejalashtirish va boshqaruv mexanizmlari, shuningdek, hududiy turizm salohiyatini oshirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan [4]. Ushbu tadqiqotlar milliy turizm tizimini rivojlantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratgan bo'lsa-da, safari turizmni mustaqil iqtisodiy tizim sifatida kompleks o'rganishga yetarli e'tibor qaratilmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, safari turizmni alohida iqtisodiy tizim sifatida, uning hududiy iqtisodiyotga integratsiyasi, ko'p sektorli hamkorlik mexanizmlari va barqaror rivojlanish indikatorlari asosida baholash masalalari hali yetarli darajada ilmiy o'rganilmagan [1]. Bu esa mazkur yo'nalishda yangi nazariy yondashuvlar va metodologik asoslarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

### **Metodologiya**

Mazkur tadqiqotda turizm tizimlarini kompleks baholash va ularning rivojlanish mexanizmlarini aniqlash maqsadida zamonaviy iqtisodiy-tahliliy usullar majmuasidan foydalanildi. Jumladan, statistik va regressiya tahlili orqali safari turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi, vaqt qatorlari asosida ARIMA modellashtirish yordamida istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari prognoz qilindi [1]. Shuningdek, ekspert baholash usuli orqali hududiy turizm salohiyati va mavjud muammolar aniqlanib, matritsali tahlil yordamida turizm tizimining tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar baholandi.

Tadqiqotda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan T-ABC (Attractions–Basics–Context) modeli asosida turizm resurslarining jozibadorligi, infratuzilma darajasi va institutsional muhit kompleks tarzda tahlil qilindi [5]. Ushbu yondashuv hududiy turizm tizimlarini ko'p omilli baholash va ularning raqobatbardoshligini aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, safari turizmni baholash va boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida yangi integratsiyalashgan indekslar tizimi ishlab chiqildi. Xususan, STSD (Safari Tourism Sustainable Development) indeksi hududlarning safari turizm salohiyatini

aniqlashga xizmat qilib, u uch darajali baholash shkalasi asosida (33–48 ball – yuqori potensial, 20–32 ball – o‘rtacha, 16–20 ball – zaif) tasniflanadi [1]. Mazkur indeks hududiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, investitsion ustuvorliklarni aniqlash va strategik rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, MSCI (Multi-Sectoral Cooperation Index) indeksi ishlab chiqilib, u turizm tizimida ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasidagi hamkorlik darajasini baholashga qaratilgan. Ushbu indeks orqali 0.8–1.0 oralig‘idagi qiymatlar yuqori samarali hamkorlik tizimini, 0.5–0.7 oralig‘i esa rivojlanayotgan hamkorlik tizimini ifodalaydi [1]. Mazkur yondashuv turizm tizimining institutsional rivojlanishini baholash va ko‘p sektorli integratsiyani kuchaytirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar turizm tizimlarini kompleks baholash, ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini beradi.\

### **Tahlil va natijalar**

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari safari turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va uning rivojlanish mexanizmlarini kompleks baholash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, safari turizm ko‘p tarmoqli iqtisodiy tizim sifatida nafaqat turizm sektorini, balki transport, xizmat ko‘rsatish, savdo, qishloq xo‘jaligi va ekologiya sohalarini ham o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantiradi [1]. Bu esa uning multiplikativ ta‘sirini kuchaytirib, hududiy iqtisodiyotning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hududiy darajada olib borilgan baholash natijalariga ko‘ra, safari turizm salohiyati tabiiy resurslar mavjudligi, infratuzilma rivojlanganligi, mahalliy aholi ishtiroki va boshqaruv samaradorligiga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Xususan, ishlab chiqilgan STSD indeksi asosida hududlar differensial baholandi va natijalar safari turizm rivojlanishida resurslar notekis taqsimlanganligini ko‘rsatdi [1]. Yuqori salohiyatga ega hududlar investitsiya jalb qilish va kompleks rivojlantirish uchun ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi, o‘rtacha va past salohiyatli hududlar esa infratuzilma va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Tahlillar davomida safari turizm rivojlanishiga asosiy to‘sqinlik qiluvchi omillar ham aniqlandi. Jumladan, transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, turar joy va servis xizmatlarining sifati pastligi hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarining cheklanganligi asosiy muammolar sifatida qayd etildi [1]. Shu bilan birga, turizm faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasidagi hamkorlik darajasining pastligi ham sohaning samarali rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan MSCI indeksi natijalari ko‘p sektorli hamkorlikning turizm tizimidagi hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuqori darajadagi hamkorlik tizimi mavjud bo‘lgan hududlarda turizm xizmatlari sifati, investitsiya jalb qilish darajasi va iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada yuqori bo‘lishi aniqlangan [1]. Bu esa davlat, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyat o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zaruratini asoslaydi.

Shuningdek, iqtisodiy tahlillar safari turizmning ekologik-iqtisodiy samaradorligini baholashda integratsiyalashgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Turizm daromadlari, multiplikator effekti va bandlik darajasining ekologik xarajatlar bilan nisbatini hisoblash natijasida safari turizmning yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligi isbotlandi

[2]. Bu esa ekologik muvozanatni saqlagan holda iqtisodiy o‘rinishni ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari safari turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, xususan “experience economy” konsepsiyasi, raqamli texnologiyalarni joriy etish va davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyatini tasdiqladi [3]. Ushbu yondashuvlar turizm xizmatlari sifatini oshirish, yangi turistik mahsulotlar yaratish va hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

### **Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijalari turizm tizimlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hududiy iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida safari turizmning ko‘p tarmoqli iqtisodiy tizim sifatidagi mohiyati ochib berilib, uning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, investitsiyalarni jalb qilish va bandlikni oshirishdagi roli ilmiy asoslandi [1].

Shuningdek, ishlab chiqilgan STSD indeksi hududlarning safari turizm salohiyatini aniqlash va ularni strategik rejalashtirishda muhim vosita ekanligi, MSCI indeksi esa turizm tizimida ko‘p sektorli hamkorlik samaradorligini baholashda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi asoslab berildi. Ushbu indekslar turizm tizimlarini kompleks boshqarish va rivojlantirishda innovatsion yondashuv sifatida taklif etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, turizm tizimlarining samarali rivojlanishi infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish bilan bevosita bog‘liq [4]. Shu bilan birga, ekologik muvozanatni saqlash va resurslardan oqilona foydalanish barqaror rivojlanishning asosiy sharti sifatida e’tirof etildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ro‘ziyev B.A. Qashqadaryo viloyatida safari turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2025. – 63 b.

2. Spenceley A. Responsible Tourism: Critical Issues for Conservation and Development. – London: Earthscan, 2008. – 416 p.

3. Pine B.J., Gilmore J.H. The Experience Economy: Work is Theatre and Every Business a Stage. – Boston: Harvard Business School Press, 1999. – 254 p.

4. Global Sustainable Tourism Council (GSTC). Sustainable Tourism Indicators Handbook. – Washington, DC: GSTC, 2013. – 104 p.

5. Manrai L.A., Manrai A.K., Friedeborn S. Environmental determinants of destination competitiveness and its Tourism Attractions-Basics-Context (A-B-C) indicators: A review, conceptual model and propositions // Journal of Economics, Finance and Administrative Science. – 2020. – Vol. 25, No. 50. – P. 425–449.

6. Vayskulov , R., & Xushvaqtoev , R. (2024). O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI . YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01). Retrieved from <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/tc/article/view/749>

7. QODIROV, A., & VAYSKULOV, R. L. (2025). O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYALASHNING AHAMIYATI. SCIENCE, 4(S1-1), 271-275.

8. Akramovich, R. Z. B. (2025). QASHQADARYO VILOYATIDA SAFARI TURIZMINING RIVOJLANISH KO ‘RSATKICHLARINI IQTISODIY-STATISTIK BAHOLASH. Economics and Innovative Technologies, 13(6), 146-150.

9. Akramovich, R. Z. B. (2025). Analysis of Safari Tourism Development Opportunities in Kashkadarya Region: Analisis Peluang Pengembangan Pariwisata Safari di Wilayah Kashkadarya. Academia Open, 10(1), 10-21070.

10. Ne‘matovich, S. M., & Akramovich, R. Z. B. (2025). Evaluation and Development Prospects of Safari Tourism Sites in Kashkadarya Region. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(1), 323-328.